



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

HIKOYA JANRINING BADIY TAKOMILI VA YUZAGA KELISHI

Oripova Sarvinoz Narzulloyevna
Alfraganus universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada insoniyat ilk tafakkur qa'tlarida shakllangan hikoya haqida so'z boradi. Antik yunon madaniyatidan oziqlangan janrlar tradisiyasiga G'arbu Sharq an'analari negizida baho beriladi. Shuningdek, uning davrlar solnomasidagi mavqeiga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: mif, antik, hikoya, janr, tradisiya, sintez, genezis, qiyoslash, poetika.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СТАНОВЛЕНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ ЖАНРА РАССКАЗА

Орипова Сарвиноз Нарзуллоевна
Университет «Alfraganus», старший преподаватель

Аннотация

В данной статье рассматривается рассказ как жанр, сформировавшийся на ранних этапах человеческого мышления. Традиции жанра, восходящие к античной греческой культуре, оцениваются в контексте западных и восточных литературных традиций. Особое внимание уделяется его месту и роли в историческом развитии литературы.

Ключевые слова: миф, античность, рассказ, жанр, традиция, синтез, генезис, сопоставление, поэтика.

THE ARTISTIC DEVELOPMENT AND FORMATION OF THE SHORT STORY GENRE

Sarvinoz Narzulloyevna Oripova
Alfraganus University, Senior Lecturer

Abstract

The article discusses the short story as a genre formed in the earliest stages of human thought. The genre traditions rooted in ancient Greek culture are evaluated within the framework of both Western and Eastern literary traditions. Special attention is paid to its position and role in the historical development of literature.

Keywords: myth, antiquity, short story, genre, tradition, synthesis, genesis, comparison, poetics.

Ma'lumki, insoniyat tarixiga zimdan nazar tashlar ekanmiz, nafis san'at yuzaga kelmagan chog'laridayoq botiniy ehtiyoj o'laroq o'zlarining his va tuyg'ularini qandaydir "maishiy" hayotini qodirish maqsadida zavqu shavq ulashuvchi "o'yin"larni kashf etishgan, o'ylab topishgan. Keyinchalik bu an'ana san'at deb nomlanib, qadriyatlar negizida shakllana boshlagan. Ong va tafakkur asta-sekinlik bilan ayni maqsadda taraqqiyot davriga qadam qo'yishga zamin yaratgan. Ichki ehtiyoj, taqdirlar hukmi, Allohni tanish, tabiat ofatlaridan qo'rqish, tabiiy jarayonning ajralmas bir qismiga aylangan. Inson aqlu zavokati bilan badiiy

san'atni kashf etdi. Undan huzur halovat topdi, o'zligining kim ekanligini, yaratuvchining kuch-qudratiga shak-shubhasiz iymon keltirdi. Xudolarni o'ylab topib, qandaydir topinish uchun olis-yain safarlarga otlandi. Qabila, urug' va bir jamiyat sifatida o'zlarining muqaddas vazifalarini tushunib yeta boshladi. Qahramonlik, juvonmardlik bilan ayni shu jarayonda oila atalmish muqaddas qarorgohni qo'riqlash, yovlar, dushmanlar orasida botirlik ko'rsatish kabi yumushlarni ham qoyilmaom qilib bajara boshladilar. Demak, san'at o'z-o'zidan yuzaga kelmagan. U ming yillar davomida botiniy ehtiyoj (qoniqmaslik instinkti) sabab sayqallana boshladi. Bu taraqqiyot yozma adabiyot paydo bo'lgunga qadar mifologiya bag'rida qoim bo'ldi. Mifologiya – ilk anglash, tabiat va inson, jamiyat uchligini bir maxrajda jam bo'lishiga yetakladi.

Inson tabiat va jamiyat farzandi. Azim qadriyatlar hamisha o'zidan oldingi yig'ilgan boy tajribalar evaziga taraqqiy etadi. Ayniqsa, folklor asarlarining mohiyatida ana shu qadriyatlarga tayanish va unga munosib bo'lib turish masalasi o'z-o'zidan ravshanlashadi. Eng qadimgi yozma yodgorliklardan to'follkorga borib tutashgan san'at turi har qanday janrning tub ildizini keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan G'arb badiiy-estetik tafakkuri antik yunon madaniyati bilan tutashib ketadi. Undan oziqlanadi, uning tajribalardan maksimal darajada foydalanadi. Ayni damda, har qanday janr o'zining yetib kelgan manzilu makonlarida tarixiy jarayonning bir uzvi ekanligini namoyon qiladi. Hikoya ham xuddi shunday. Chunki hikoyaning kelib chiqishi – hikoyatdan paydo bo'lganligidir. Hikoya – hikoyatning qonuniya vorisi. Farqi shundagi hikoyat ma'lum bir xalqning mifologik qarashlari zahirida paydo bo'lgan, yagona estetik funksiyaga ega tugal ixcham shaklning badiiy ini'kosidir. Unda qisqalik, aniqlik, hozirjavoblik, voqealarning ma'lum bir maydon (vaqt) ichida sodir bo'lishi, inson irodasining bir bo'lagini tayin etishi bilan boshqa yirik adabiy janrlardan keskin farqlanib turadi.

G'arb adabiy-estetikasida har qanday janrning paydo bo'lishi uchun o'zidan oldingi og'zaki va yozma adabiy durdonalarning ta'siri nihoyatda beqiyosdir. Ulardan ilhomlanish, tajriba to'plash, o'rganish, boy ijodiy merosni qayta kashf etish uchun yozuvchilar katta mahorat bilan ish tutadilar. Ingliz va fransuz, nemis yoki ispan, italyan yoki irland adabiy tafakkurida XX asrdagi kabi xilma-xil janrlar diffuziyasi ro'y bergan emas. Ularda insonni tabiatning va jamiyatning bir bo'lagi sifatida kashf etish mumkin qadar soddalikdan – murakkablik qadar o'sib boradi. Bular nimalarda ko'rinadi. Holat shundayki, janrlar qisman bir-birini to'ldiruvchi, rivojlantiruvchi, mukammallashtiruvchi mohiyat kasb etmasin, barchasida birtta jihat qabarib ko'rinadi. U ham bo'lsa insonni qanday tasvirlash, uni xarakter xususiyatlarni kashf etish, jamiyatning ongli yaratig'i, mavjudoti sifatida baholash manerasi aosiy vazifaga evriladi. Ayni shu tamoyil hikoya modifikatsiyasini namoyish etishga yetaklaydi.

Prof. D.To'raev qayd etishicha: "O'zbek badiiy nasri keyingi yillarda hayotiy mavzular, ijodiy uslub rang-barangligi, ruhiy va falsafiy tahlil, xarakterlar talqini borasida jiddiy yangilanishlar, o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Adabiy tanqidchilikdagi nazariy mulohazalarda an'anaviy proza va modern adabiyot degan tushunchalar tez-tez tilga olinmoqda. Xususan, G'arb adabiyotidagi simvolizm va syurealizm kabi adabiy oqimlarga, Frans Kafka, Albert Kamyu, Jan Pol Sartr, Luis Borxes, Jeyms Joysga ergashgan o'zbek adiblarining asarlari modern prozaga aloqador baholanmoqda". XX asrning 30-yillariga kelib hikoya janri G'arb adabiy-estetik tafakkurida katta "burilish" davrini boshlab berdi. Ingliz va fransuz, nemis yozuvchilari janrning taraqqiy etishida katta bir tajriba maydonini hosil qilishga erishdi. Bunda tasvirlanayotgan voqealar – an'anaviy ifodadan, yangicha ifoda tarziga almashindi. Ramzlar, majozlar, metaforalar, ishoralar yozuvchi nuqtai nazari bilan inson kapitali, bilim va tajriba talqinida yanada ranginlashdi. Ayniqsa, hayot haqiqati va badiiy pafosi mana shu kriteriyalarni turfalashuv modusini maydonga hozirladi. Birinchi jahon urushi davriga qadar yozuvchilar

muhabbat va o'lim mavzusini bir inson qismatining ajralmas bo'lagi tarzida tasvirlagan bo'lsa, keyinchalik modernizm va postmodernizm yo'nalishida bir shaxs ruhiy olami timsolida gavdalandirishga harakat qilganligida qabarib ko'rinishi tabiiy holga aylanayozdi.

“Badiiy yetuklik ijodkorda birdaniga shakllanadigan jarayon bo'lmay, u yozuvchidan uzoq yillik o'qish, o'rganish, izlanishlar va tinimsiz mehnat qilishni talab etadi. Bunda yozuvchi o'zi mansub davr badiiy-estetik qarashlarini, o'z xalqining ko'p asrlar davomida orttirgan tajriba, bilim, ko'nikma, malaka va albatta, ideallarini puxta bilishi hamda milliy mafkurasini to'g'ri anglashi shart bo'ladi. Shuning uchun yetuk shoir yoki yozuvchi bir necha yilda paydo bo'lib, xalqqa kamarbasta bo'la olmaydi. Avval, ishora qilinganidek, badiiy puxta asar yaratish ko'nikma shakllanishi iste'dod, ilhom, tinimsiz mehnatni talab etadi. Uzoq yillik izlanish, ijod qilish ham har bir yozuvchida turlicha kechishi tabiiy.” Prof. Q.Yo'ldashyev haqli ravishda e'tirof etganidek, hikoya yoki roman, qissa muallifi asrlar davomida qo'lga kiritilgan boy ijodiy tajribani o'zining qalb shuuri bilan namoyon etuvchi asl haqiqatni ayta olish qobiliyatini yuzaga chiqaruvchi o'rtadagi odamdir. U o'tmish orqali bugunni, bugun orqali kelajaka ishonch tuyg'usini shakllanishiga, barqarorlashuviga hissa qo'shayotgan mohir san'atkor vazifasini bajarishi tayin.

Tadqiqotchi M.Obidjonov shartli ijodiy kognitiv ijodiy jarayonni 4 turga bo'lib talqin qiladi:

1. Ob'ektiv borliq.
2. Sub'ektiv tasavvur.
3. Adabiy ta'sir.
4. Yozuvchining badiiy olam .

G'arb adabiy-estetik tafakkurida mifologik qarash (yangi zamon mifologiyasi) ramzlar tilida ishora va imo, “kosa tagida nimkosa” mantiqiga asoslanganini taqozolaydi. Chunki yuqoridagi 4 ta unsur har qanday janr mohiyatida ikkilanganlik ro'y berishi mumkinligini ham keltirib chiqaradi. Borliqni, odamni, jamiyatni tasvirlash esa hikoyanavisdan katta matonat, sabr-toqat, izlanish, qunt, tajriba, ilhom, iste'dodni talab etadi. Mana shu konsepsiya G'arb va Sharq adabiyotida tafakkur fragmentlarining qorishiq qiyofasini ko'z o'ngimizga keltiradi. Sharq xalqlari yozuvchilari –G'arb yozuvchilaridan janrlar kesimida ilhom tuyib, ta'sirlanib asar yozarkan, qaysi rakursdan turib tasvir etish muhimligini o'ylab ko'ra boshlaganligida seziladi. Chunki yozuvchi o'zidan oldingi salafariga odim ergashgan va ergashadi ham. Agata Kristidan boshlab bugungi davr G'arb yozuvchilari zamonaviy inson kim, ular qaysi mezonlar asosida insonni qayta idrok etadi degan konsepsiyani ilgari suradi. Bular o'z davrida an'ana bo'lgan, keyinchalik noan'anaga aylangan talqin metodologiyasini mukammal tarzga evrilishiga zamin hozirlaganida deb tushunish lozim.

Prof. U.Jo'raqulov bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi: “Agar biz asl adabiyotni voqelik aks etgan bir ko'zguga qiyoslaydigan bo'lsak, hikoya janri ushbu ko'zguning siniqlaridir. Ammo hikoyaning bor qudrati ham aynan shu siniqligida. Zarrada borliq, qatrada ummon, nur tolasida quyosh aks etishini yodga olsak, hikoyaning asl qudratini teran his qilamiz. Insonga xos ulug'vorlik va shariflik butun borliqdan ko'ra ustunroq bo'lganidek (Barchasini garchi latif aylading, Boridin insonni sharif aylading... Navoiy), ba'zan qatra imkoniyati ummon imkoniyatlaridan ustunlik qiladiki, jahon adabiyoti tarixida siz kuzatgan holatlar shu bilan izohlanadi.

Jahon adabiyoti tarixida A. P. Chexov, S. Moem, J. London, H. Hesse, O. Genri singari mashhur hikoyanavislar bilan bir qatorda L. N. Tolstoy, U. Folkner, M. Sholoxov kabi bu janrga kamroq murojaat qilgan, ammo bir-ikki hikoyasi misolida betakror san'at namunasini meros qoldirgan yozuvchilar ham uchraydi. Tolstoyning “Avliyo Sergiy”, Folknerning “Qora musiqa”, Sholoxovning “Xol” hikoyalari mana shunday noyob badiiy kashfiyotlar hisoblanadi”

. Binobarin, “ko‘zgu siniqlari”da aks ettirilayotgan zarradagi olam manzarasi yozuvchilarda katta bir imkoniyatning yuzaga chiqishida kalit vazifasini o‘taydi.

G‘arb adabiy-estetik tafakkurida hikoya janri genezisi va tadrijiy takomili quyidagi shartli 4 ta tasnifda o‘z yechimini topishi muqarrar:

1. Antik avantyur epos shakllangan eng qadimgi davrlarda tragediya va tragik vaziyatlar sahna asarlaridan badiiy nasrga (epos va poema) ko‘chib o‘tdi. Bular XV asrda ingliz va umuman, Yevropa nasrida alohida fragmentlarni keltirib chiqardi.

2. XVIII asrga kelib satira, yumor eposning asosiy tasvir quroliga (vosita) aylandi. Ana shu jarayonda xalq xo‘jaligida qahramonlik ko‘rsatgan boylar va yo‘qsillar adabiyoti tasviriga bag‘ishlangan qator asarlar yuzaga keldi.

3. XIX asrning birinchi yarmida Fransiya ro‘y bergan adabiy inqilob Balzak, Gi de Mopassan avlodining hikoya yozish san‘atini boshqa hududlarda ko‘chishiga zamin yaratdi. Insonni tasvirlash metodologiyasi yangilandi.

4. XX asr boshlariga kelib yana “yangi tip”dagi mifologik modsularga bo‘lgan ehtiyoj kuchaydi. Mif va zamon (hikoya) arxitektonikasi tubdan yangilandi. Ularda insoniy tanlov fokusi ham umummilliy tusda taraqqiy etdi. J.Joys va F.Kafkalar boshlab bergan an‘ana J.Oruell va boshqa yozuvchilar ijodida murakkab tasvir usullarini paydo qildi. Bular o‘z navbatida, o‘zbek adabiyotida an‘ana va noan‘ana orasidagi farqlanishga keng sharoit yaratib berishga sabab bo‘ldi.

Yunon olimi Arastu: “Asar voqeasi – fabulalarning ayrimlari oddiy, boshqalari esa o‘zaro chirmashib ketgan bo‘ladi. Chunki rivoyatlarda aks etgan voqealar ham xuddi shundaydir. Men, shunday to‘xtovsiz va yagona voqeani sodda deb aytamanki, unday voqea davomida (yuqorida aytilganidek) taqdir o‘zgarishi keskin burilishsiz va to‘satdan anglashsiz sodir bo‘ladi, chirmashgan fabulada esa voqealar keskin burilish va to‘satdan anglash yoki ularning har ikkisi vositasida sodir bo‘ladi. Buning hammasi voqea mantiqidan, avvalgi voqeaning zaruriyat yo ehtimollik asosidagi davomi tarzida kelib chiqishi kerak. Chunki biron narsa sababli boshqa narsaning kelib chiqishi bir narsadan keyin boshqa narsaning yuz brishi o‘rtasida katta farq bor” , – deya alohida ta’kidlaydi. Jumladan, har qanday janr o‘zining mazmun va mohiyati, shakliy tuzilishidan kelib chiqib, o‘zidan oldingi janrlar qurshovida toblanib, yo davom etadi, yoki o‘zgacha bir yo‘sinda namoyon bo‘ladi.

Yangi asr ibtidosida Joyslar avlodi shakllandi. Ular nafaqat G‘arb adabiy-estetik tafakkuriga balki turkiy xalqlar adabiyotiga ham o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsata boshladi. Bular o‘zbek adabiyotida yangi to‘liqning barkamol asarlar yaratishiga zamin yaratishga sabab ham bo‘ldi. Masalan, G‘arb adabiy tafakkuri insonga yolg‘izlik girdobida o‘zligini qidirayotgan odam xarakterini chizishga bel bog‘lashga hissa qo‘shgan bo‘lsa, uning oqibatida muayyan kompozision tartiblarning tizimligini namoyon etishga imkon berdi. Bular nimalarda ko‘rinadi, birinchidan, mifopoetik talqin modusi, insonning bilish ko‘nikmalari, ikkinchidan, kinoyaviy sarkazm ifodasida shaxsning ayanchli taqdiri, uchinchidan, fan-texnika inqilobida odamlarning sajiyasi naqadar o‘zgarib ketganligini kafolatlaydi.

Rus adabiyotshunos olimi G.P.Pospelov: “Hikoya qisqa vaqtda, sahnadagi kundalik maishiy hayotni tasvirlaydi, novellada esa yozuvchi qahramon hayotidagi hayratomuz namunalarni ko‘rsatadi” , degan qarashlarni ilgari suradi. Bu iqtibosdan shuni aniqlashtirish lozimki, har bir janr tabiatida yozuvchi olam va odamga qay rakusda turib munosabat bildirishi ham tayin etadi. Chunki Yevropaning gullab-yashnagan davri adabiy hayotining sermahsul hayotini to‘laqoni tasavvur etish imkonini beradi. Mana shu konsepsiya zamonaviy hikoyachilik an‘anasining – noan‘anaga o‘tish davrini ham aniqlashtirishga zamin tayyorlagan.

“Roman va novella ham shakl, ham ichki jihatdan bir-biriga o‘xshamagani uchun hech qachon bir xil paytda, bir xil sur‘atda rivojlana olmagan. Ma‘lum bir davrda ma‘lum bir

adabiyotda yo hikoyachilik, yo romanchilik taraqqiy qilgan. Hikoya biror bir qarama-qarshilik, nomutanosiblik, anglashmovchilik yoki ziddiyat asosida qurilishi lozim. Hikoya latifa singari o'zining butun og'irligini yakuniy qismga to'plab boradi. Xuddi samolyotdan tashlangan snaryad misoli u yuqori tezlikda pastga qulab, kerakli nuqtaga o'tkir uchi bilan sanchilishi kerak. "Short story" – "hikoya" ikki shartning kelishishi asosida vujudga kelgan atama: kichik hajm va yakundagi syujetli zarba. Novella o'z shakllanish davrlarida AQSh xalq og'zaki ijodidagi hikoyachilik bilan yaqin bog'liqlikda bo'lsa, eng yangi amerika adabiyotida bu bog'liqlik yo'qoladi. Chunki bu paytga kelib xalq ijodi ham ma'lum darajada milliy so'z san'atidagi o'rnini yo'qotgan bo'ladi". Darhaqiqat, hikoyaning ilk ildizlari ham, yashash quvvati ham, shakllanish jarayoni ham oson kechgan emas. Chunonchi adabiy bitiklar zamirida hamisha inson iztiroblarining faqat bir qismigina aks ettiriladi. Mana shu aks-sado zamirida millat sajiyasi, qadriyati, ma'naviyati, orzulari, qayg'ulari, shafqati-yu, muhabbati turadi.

Umuman olganda, G'arb adabiy-estetik tafakkurining ilk ildizlari antik yunon madaniyati tarixiga borib tutasharkan, unda jamiyat quvvai hofizasi ham muayyan kalit vazifasini o'taydi. Shu ma'noda, hikoyadan – qissaga, qissadan – romanga o'tib turuvchi adabiy platformalar himoya chizig'iga uyg'unlashadi. Hikoyada esa muayyan kishi ruhiyati aks ettirilib, shu asosda jamiyat hayotiga to'laqonli baho berish, ilg'ash, tushunish modusi jilvalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Arastu. Poetika. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
2. Balzak O. Inson komediyasi. – Toshkent: Sharq, 2004.
3. Mopassan G. Hikoyalar. – Toshkent: O'zbekiston, 1987.
4. Joys J. Dublinliklar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.
5. Kafka F. Hikoyalar va novellalar. – Toshkent: Akademnashr, 2016.
6. Oruell J. Adabiyot va totalitarizm haqida maqolalar. – Toshkent: Tafakkur, 2015.
7. Pospelov G.P. Adabiyot nazariyasi. – Moskva: Visshaya shkola, 1978.
8. To'raev D. Hozirgi o'zbek nasrida modernizm talqinlari. – Toshkent: Fan, 2010.
9. Yo'lchiyev Q. Badiiy tafakkur va ijod masalalari. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.
10. Obidjonov M. Badiiy tafakkur genezisi va kognitiv jarayon. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
11. Jo'raqulov U. Hikoya poetikasi va janr evolyutsiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
12. Lotman Yu.M. Badiiy matn strukturasining tahlili. – Moskva: Iskustvo, 1972.
13. Baxtin M.M. Epos va roman. – Moskva: Xudojestvennaya literatura, 1975.
14. Propp V.Ya. Mifologiya va ertak morfologiyasi. – Moskva: Labirint, 1998.